

О`ЗБЕКИСТОНДА ВАЛЮТА ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ ТАКОМILLIASHTIRISH YO`LLARI

Anvarova Dilnoza Ibroximjon qizi
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
ORCID: 0009-0005-4017-2477
dilnozaanvarova627@gmail.com

Annotation. Maqolada valyuta operatsiyalarining nazariy bayoni hamda ularning mamlakat iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri ko'rib chiqiladi. O'zbekiston valyuta bozorining asosiy muammolari chet el valyutasiga talabning taklifdan yuqoriligi, milliy valyutaning barqarorligi va boshqalar hisoblanadi. O'zbekistonda valyuta operatsiyalarining hozirgi holati o'rganilgan hamda takomillashtirish maqsadida takliflar bildirilgan.

Keywords: valyuta bozori, valyuta operatsiyalari, foreks, forward, swap operatsiyalari.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВАЛЮТНОЙ ОПЕРАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Анварова Дилноза Иброхимжон кизи
*Банковско-финансовой академии
Республики Узбекистан*

Аннотация. В статье рассматривается теоретическое описание валютных операций и их влияние на экономические показатели страны. Основными проблемами валютного рынка Узбекистана являются превышение спроса на иностранную валюту над предложением, стабильность курса национальной валюты и т.д. Изучено современное состояние валютных операций в Узбекистане и разработаны предложения по улучшению.

Ключевые слова: валютный рынок, валютные операции, форекс, форвард, своп-операции.

WAYS TO IMPROVE FOREIGN EXCHANGE OPERATIONS IN UZBEKISTAN

Anvarova Dilnoza Ibrokhimjon kizi
*Banking and Finance Academy
of the Republic of Uzbekistan*

Annotation. The article examines the theoretical description of currency transactions and their impact on the country's economic indicators. The main problems of the foreign exchange market of Uzbekistan are that the demand for foreign currency exceeds the supply, the stability of the national currency exchange rate, etc. The current state of foreign exchange operations in Uzbekistan is being studied and proposals for improvement are being developed.

Keywords: foreign exchange market, foreign exchange operations, forex, forward, swap operations.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-soni "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi bobida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish yo'nalishiga asosan bank tizimini yanada isloh qilish vazifasi qo'yilgan bo'lib, u orqali davlatning moslashuvchan pul-kredit siyosatini shakllantirish, milliy valyutaning barqarorligiga erishish, valyuta bozorini erkinlashtirish hamda shu orqali banklar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar turlarini kengaytirish vazifalari qo'yilgan. Mamlakatda valyuta munosabatlarini rivojlantirish, tijorat banklari va boshqa moliya muassasalarini xalqaro moliya bozorlaridagi ishtiroklari uchun sharoitlarni yaratish, milliy valyuta bozorini barqaror ishslashini ta'minlash, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqaruvchi sub'ektlar o'rtasida xalqaro investitsiyalarni kengroq jalg qilish mamlakatda milliy valyuta bozorini va zamonaviy valyuta operatsiyalarini shakllantirishni taqazo etadi. Shu maqsadda, O'zbekistonda valyuta operatsiyalarini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim vazifasi hisoblanadi. Xususan, tijorat banklarida valyuta operatsiyalari daromad olib keluvchi manbalardan biri bo'lib, ko'plab mijozlar iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida yirik loyihalarni amalga oshirishda xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirishadi.

Iqtisodchilarning ta'kidlashicha, xalqaro savdo va moliya bozorlari rivojlanishida valyuta operatsiyalari muhim o'rinni tutadi. Valyuta bozori (Forex) dunyodagi eng yirik moliyaviy bozor bo'lib, mamlakatlarga chet elda tovarlar, xizmatlar va investitsiyalarni sotib olish hamda sotish imkonini beradi. Valyuta operatsiyalari kompaniyalarga o'zlarining moliyaviy oqimlarini boshqarish va valyuta o'zgarishi bilan bog'liq risklarni minimallashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishimizni yoritishda taqqoslash, analiz, sintez, deduksiya va induksiya usullaridan foydalanildi. Valyuta bozorining mamlakatimizdagi holati tahlil qilinib, asosan O'zbekistonda tijorat banklari va O'zbekiston Respublika valyuta birjasida qo'llanilayotgan valyuta operatsiyalari natijalari o'rganildi.

Ma'lumotlarni yillar kesimida taqqoslab tahlil qilish orqali kengroq qilib yoritib berishga harakat qilindi. Natijada muammolar aniqlanib, muammolarga tegishli ilmiy asoslangan takliflar berildi.

Adabiyotlar sharhi.

Valyuta operatsiyalari xalqaro iqtisodiy aloqalarni saqlashning muhim vositasidir. Iqtisodchilarning qayd etishicha, valyuta risklarini mohirona boshqarish va valyuta bozorida mutanosib siyosat yuritish uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi mumkin.

Valyuta operatsiyalar milliy va xalqaro qonunlar bilan tartibga solinadi va turli xil operatsiyalarni o'z ichiga oladi, masalan:

1. Konversion operatsiyalar: bir valyutani boshqa valyutaga almashtirish (masalan, dollarni yevroga).
2. Xalqaro pul o'tkazmalari: pul mablag'larini mamlakatlar o'rtasida o'tkazish.
3. Foreks operatsiyalari: valyuta bozorlaridagi spekulyativ operatsiyalar.
4. Xedjrlash: valyuta risklarini kamaytirish bo'yicha operatsiyalar (masalan, valyuta kurslarining o'zgarishidan himoya qilish uchun hosilaviy moliyaviy vositalardan foydalanish).
5. Depozit-kredit operatsiyalari: xorijiy valyutadagi depozitlarni joylashtirish yoki chet el valyutasida kreditlar berish.

O'zbekiston Respublikasining 22.10.2019 yildagi O'RQ-573-soni "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi haqidagi qonunida valyuta operatsiyalariga quydagicha ta'rif beriladi: valyuta qimmatliklariga bo'lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o'tishi bilan bog'liq

operatsiyalar, valyuta qimmatliklaridan to'lov vositasi sifatida foydalanish, valyuta qimmatliklarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, jo'natish va o'tkazish, shuningdek O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish, jo'natish va o'tkazish, rezidentlar va norezidentlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi valyutasidagi operatsiyalar (Qonun, 2019).

Iqtisodchi olimlar valyuta operatsiyalarining iqtisodiy o'sishga ta'siri, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishda, investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlashda valyuta operatsiyalarini takomillashtirish zarurati bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Krasheninnikov (2003) valyuta bozoridagi operatsiyalarini "valyuta bozori ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar va valyuta bozori ishtirokchilari tomonidan tuziladigan bitimlar" deb belgilaydi.

Uzoikin (2002) "Qonunda ko'rsatilgan valyuta operatsiyalarining aksariyati bitimlardir" deydi.

Germaniya iqtisodiyoti bo'yicha mutaxassis Antonov (2015) valyuta operatsiyalariga ko'proq daromadli, demakki, riskli faoliyat turi deb ta'rif berib, iqtisodiy tabiatni jihatdan valyuta operatsiyalarini quyidagilarga bo'lish mumkin deb hisoblaydi: valyuta dilinggi, depozit-kredit operatsiya tashqi-savdo valyuta operatsiyalari va boshqa valyuta operatsiyalari.

Boboqulov (2007) tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarini Markaziy bankning valyuta siyosati doirasida tartibga solishni takomillashtirish masalasini tadqiq qilgan. Uning fikricha, Markaziy bank tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalarining miqdorini kunlik nazorat qilib turish zarur.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston valyuta bozori mamlakat moliya tizimining muhim qismini tashkil etib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligi kabi bir qancha asosiy institutlar tomonidan tartibga solinadi.


O'zbekistonda 2017-yildan boshlab milliy valyuta – so'm (so'm) kursi ustidan qat'iy nazoratdan voz kechib, valyuta bozorini liberallashtirish siyosati olib borilmoqda. Hozirgi vaqtida valyutaga bo'lган talab va taklifga qarab o'rnatiladigan suzuvchi valyuta kursi mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki har kuni valyuta kursini e'lon qiladi. Bu banklar va ayriboshlash shoxobchalari o'z operatsiyalari uchun foydalanadigan kursi hisoblanadi. Tijorat banklari valyuta kursini bozor kon'yunkturasiga qarab o'zları mustaqil belgilaydi.

Islohotlar jismoniy va yuridik shaxslar uchun valyutani sotib olish va sotishni ancha soddalashtirdi. Fuqarolar valyuta ayriboshlash shoxobchalarida va onlayn-banking tizimlari orqali erkin xarid qilishlari mumkin.


O'zbekiston valyuta bozorida asosan USD/UZS, EUR/UZS, RUB/UZS va CNY/UZS valyuta juftliklari bo'yicha valyutaviy spot savdolari tashkil etilgan. Valyuta bilan asosiy operatsiyalar banklar orqali, shuningdek, banklararo valyuta birjasi orqali amalga oshiriladi. 2023 yilda valyuta bozoridagi savdolar umumiy hajmi 458,00 trln. so'mni tashkil etib, 2022 yilgi mos ko'rsatkichga (338,18 trln. so'm) nisbatan 35,43 foizga oshdi (1-rasm).

2023 yilda xalqaro miqyosda kuzatilgan qat'iy pul-kredit sharoitida O'zbekiston ichki valyuta bozorida chet el valyutasiga talab taklifdan sezilarli oshishi kuzatildi. 2023 yilda chet el valyutasiga bo'lган talabning umumiy hajmi 42,5 mlrd dollarga yetib, 2022 yilga nisbatan 16 foizga oshdi. Ushbu talabning 78,6 foizi yuridik shaxslar va 21,4 foizi jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keldi. Ichki valyuta bozorida chet el valyutasidagi umumiy taklif hajmi esa (Markaziy bank intervensiylarini hisobga olmaganda) 34,4 mlrd dollarni tashkil etib, shundan 14,7 mlrd dollar (43 foizi) xo'jalik yurituvchi subyektlar, 13,5 mlrd dollar (39 foizi) banklar va jismoniy shaxslar hamda 6,2 mlrd dollar (18 foizi) markazlashgan manbalar hisobiga qondirildi (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti, 2023).



1-rasm. Valyuta bozoridagi savdolar hajmining qiyyasi dinamikasi, trln. so'mda¹⁴

2023 yilda yuridik shaxslar tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab 2022 yilga nisbatan 1,2 barobarga oshishi import hajmi o'sishiga mutanosib holda ro'y berdi. (2-rasm).



2-rasm. Tovarlar importi (CIF¹⁵ narxlarda, yillik)¹⁶

2023 yilda jahonda xom ashyo bozorida narxlarning tushishi eksport tushumlarining o'zgarishsiz qolishiga sabab bo'ldi.

2023 yildagi jami 22,4 mlrd dollar xorijiy investisiyalar jalb qilindi, shu jumladan 19,5 mlrd dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va kreditlar (193 %) o'zlashtirildi.

Davlat investisiya dasturi doirasida umumiyligi 9,4 mlrd dollar bo'lgan 306 ta loyiha ishga tushishi hisobiga 56 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilishiga erishildi¹⁷. Lekin sof xorijiy investitsiyalar oqimi kamayganligi kuzatildi.

¹⁴ www.uzrvb.uz, 2023 yillari yagonalari bуйича "Ўзбекистон республикаси валюта биржаси" АЖ (ЎзРВБ) бозорлари шархи.

¹⁵ Cost, Insurance, and Freight (CIF)- (ya'ni tannarx, sug'urta va yuk narxi) - import qiluvchi mamlakat chegarasida yetkazib beriladigan tovarning narxi, shu jumladan sug'urta va transport to'lovlarini yoki rezidentga ko'rsatilgan xizmat narxi. Import bojlar yoki boshqa soliqlarni yoki mamlakat ichidagi savdo va transport marjalarini to'lash; SNA93da bu tushuncha faqat batafsil importga nisbatan qo'llaniladi.

¹⁶ Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonida tuzildi.

¹⁷ <https://gov.uz/oz/miit/sections/view/7405>

2021 yilda O'zbekistonda ilk sinov svop operatsiyasini amalga oshirish maqsadida Xalqaro svop va derivativlar assotsiasiyasi tomonidan ishlab chiqilgan ISDA bosh kelishuvini imzolangan edi. 2022 yilga kelib valyutaviy fyuchers savdolari joriy etildi. Shu bilan bir qatorda, ichki valyuta bozorida muvozanatni ta'minlash maqsadida kapital harakatida konservativ yondoshuv saqlandi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda valyuta operatsiyalarini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim vazifasi hisoblanadi. Quyidagi chora-tadbirlar mamlakatimizda valyuta operatsiyalarini sezilarli darajada yaxshilash, uning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi deb hisoblaymiz:

Valyuta muomalasini tartibga solishni soddalashtirish, ya'ni byurokratik tartib-qoidalarni qisqartirish, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslar uchun qoidalarni soddalashtirish;

Bank va moliyaviy infratuzilmaga, shu jumladan valyuta ayrboshlash va operatsiyalar uchun onlayn platformalarga sarmoya kiritish orqali rivojlantirish;

Tadbirkorlar va fuqarolar uchun valyuta qonunchiligi hamda valyuta bozori imkoniyatlari bo'yicha o'quv treninglarini o'tkazish;

Risklarni kamaytirish va investorlar ishonchini oshirish uchun valyuta bozoridagi operatsiyalarning shaffofligini oshirish;

Xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan mulkiy huquqlarni himoya qilish va valyuta nazoratini soddalashtirish;

Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va boshqa tuzilmalar bilan tajriba almashish va sarmoyalarni jalb qilish bo'yicha o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti (2023), Toshkent 2024 yil/, Toshkent 2024 yil/

<https://cbu.uz/upload/medialibrary/c2e/jcu9sa4tbwawr6xfqqyn4ivpbc7s2l1/Yillik-hisobot-2024.pdf>

Qonun (2019) O'zbekiston Respublikasining 22.10.2019 yildagi O'RQ-573-sonli "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi haqidagi qonuni

Крашенинникова В.М. (2003) Валютное регулирование в системе государственного управления экономикой: Учебник / Под ред. -М.: Изд-во «Экономика», - С. 199.

Узойкин Д.А. (2002) Сделки с валютными ценностями и проблемы их недействительности: Дисс. ... канд. экон. наук. М., - С.65.

ЎзРВБ (2023) йил яқунлари бўйича "Ўзбекистон республикаси валюта биржаси" АЖ (ЎзРВБ) бозорлари шарҳи, <https://www.uzrvb.uz>.